

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>B.M.Qandov</b>	Turor risqulovning turkistonda milliy davlat qurilishi sohasiga qo'shgan hissasi.....	302
<b>U.J.Mansurov</b>	Turkistonda mustamlakachilik siyosatiga qarshi jadidchilik harakatining o'ziga xos jihatlari.....	308
<b>M.M.Alimova</b>	1920-1930 yillardagi kooperatsiya tizimi sistemasi .....	312
<b>J.Museyibzada</b>	Improving Uzbekistan's economic cooperation through international organizations.....	315
<b>A.A.Azizov</b>	Turonning qadimgi o'yinlariga oid ayrim mulohazalar (aqliy o'yinlar misolida) .....	324
<b>A.T.Ahmedov</b>	Mustaqil O'zbekistonda kasaba uyushma tashkilotlarining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari .....	328
<b>D.A.Urinbayeva</b>	Mustaqillik yillarida yoshlarni harbiy kasbga yo'naltirishda harbiy vatanparvarlik tarbiyasining o'rni.....	334
<b>T.Ch.Xoliyarov</b>	Makedoniyalik Aleksandr nomi bilan bog'liq shaharlar tarixiy geografiyasi .....	340
<b>X.X.Mamajonov</b>	Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyati tarixining usmoniy imperiyasi tarixshunosligida o'rganilishiga doir ayrim fikr va mulohazalar .....	347
<b>I.S.Yusupov</b>	Mustaqillik yillarida O'zbekistonda pochta aloqa tizimiga raqamli xizmat turlarini joriy qilinish tarixi .....	351
<b>F.K.Jumanazarova</b>	Ijtimoiy himoya tizimida xotin-qizlar bandligini ta'minlanishining maqsad va vazifalari hamda amalga oshirish mexanizmlari.....	356
<b>U.X.Gulmatov</b>	O'zbekiston SSR transporti va uning sovet hukumati iqtisodiyotidagi o'rni .....	359
ADABIYOTSHUNOSLIK		
<b>U.B.Matmurotova</b>	Badiiy tarjimada stilistik muvofiqlik - stilistik vositalardan biri o'xshatish misolida.....	364
<b>Sh.A.Safarova</b>	"Layli va Majnun" dostonining na't bobida an'ana va poetik yangilanish .....	369
<b>D.I.Nazarova</b>	Hozirgi aruziy she'rlarda fonetik hamda leksik-stilistik o'zgarishlar .....	374
TILSHUNOSLIK		
<b>A.B.Uralov</b>	Til sathlarida nomutanosiblik .....	381
<b>A.Sh.Muxamadiyev</b>	Properties of expressification of verbal aggression in uzbek and english literature.....	386
<b>Sh.M.Sultonova, S.I.Sodiqova</b>	Ismlarning qo'llanilish dinamikasi sotsiomadaniy muammo sifatida .....	393
<b>U.Sh.Turaeva</b>	Yuridik terminlar tarjimasida sinonimiya tarjima muammosi sifatida.....	398
<b>Y.T.Rakhmonkulova</b>	A comparative study of kinship aphorisms in english and uzbek languages .....	401
<b>O.F.Turdaliyev</b>	"Guliston" asarida somatik birliklarning qo'shma fe'l yasalishidagi roli .....	405
<b>M.O.Usarova</b>	Ingliz va o'zbek tillarida salomatlik va kasallikka oid maqollarning semantik xususiyatlari .....	413
<b>Ч.Х.Чамолов, Ф.Р.Мандонова</b>	Смысловые нюансы соматических фразеологических единиц в селе хушер .....	417
<b>B.Q.Nomonov</b>	Matbaa va qadoqlash sohasi terminlarining leksik struktur tadqiqi.....	426



UO'K: 343

**YURIDIK TERMINLAR TARJIMASIDA SINONIMIYA TARJIMA MUAMMOSI SIFATIDA****SYNONYMY IN LEGAL TRANSLATION AS A TRANSLATION PROBLEM****СИНОНИМИЯ В ЮРИДИЧЕСКОМ ПЕРЕВОДЕ КАК ПРОБЛЕМА ПЕРЕВОДА****Turaeva Umida Shukhratovna**

Termiz University of Economics and Service Doctor of philosophy in philology (PhD)

**Annotatsiya**

Tildan foydalanish har qanday huquqiy tizim uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Qonun ijodkorlari qonunni ishlab chiqishda odatda tildan foydalanadilar va yuridik matnlar tarjimasi jarayonida yuridik terminlar tarjimasi bir qator g'alizliklarga sabab bo'ladi. Ushbu maqolada yuridik terminlarning terminologiyada tutgan o'rni, yuridik til tavsiflari tillararo tahlil asosida berilgan. Tadqiqot obyekti sifatida ingliz va o'zbek tillarining yuridik atamaları tanlangan. Ingliz va o'zbek tillari yuridik atamalarining semantik xususiyatlari va tarjima usullari chog'ishtirma aspektida tahlilga tortilgan. Shuningdek, yuridik atamalarga qo'yiladigan talablar, atamalarni tarjima qilish xususiyatlari atroflicha yoritilgan.

**Abstract**

The use of language is crucial to any legal system. Lawmakers usually use language in the development of laws, and in the process of translating legal texts, the translation of legal terms causes a number of confusions. In this article, the role of legal terms in terminology, descriptions of legal language are given on the basis of cross-linguistic analysis. Semantic features and translation methods of English and Uzbek legal terms are analyzed from a cross-sectional aspect. Also, the requirements for legal terms and the features of translating terms are covered in detail.

**Аннотация**

Использование языка имеет решающее значение для любой правовой системы. Законодатели обычно используют язык при разработке законов, а в процессе перевода юридических текстов перевод юридических терминов вызывает ряд путаницы. В данной статье на основе кросс-лингвистического анализа дается роль юридических терминов в терминологии, описания юридического языка. Семантические особенности и способы перевода английских и узбекских юридических терминов анализируются в перекрестном аспекте. Также подробно освещены требования к юридическим терминам и особенности перевода терминов.

**Kalit so'zlar:** yuridik termin, terminologiya, yuridik til, uslubiy neytrallik, terminologik soha.

**Key words:** legal term, terminology, legal language, methodological neutrality, terminological field.

**Ключевые слова:** юридический термин, терминология, юридический язык, методологическая нейтральность, терминологическое поле.

**KIRISH**

Tarjima qardosh xalqlar tillari hamda xorijiy tillari o'rganishning muhim shartlaridan biri sifatida o'quv jarayonining barcha bosqichlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u o'quvchi va talabalarning o'rganilayotgan tillarini emas, balki ona tili hodisalarini ham ongli ravishda o'zlashtirishlariga ko'maklashadi.

Tarjimon o'zi o'girayotgan kitobda tasvirlangan xalq hayoti, tarixi, madaniyati, uning urf-odatlarigacha bilishi lozim. Bu mas'uliyat uning zimmasiga avvalo asliyat ma'no va vazifasini bekamu-ko'st idrok etish, so'ngra xotirasida shakllangan fikrni o'z tili madaniyati va me'yori asosida to'la-to'kis ifoda etish vazifasini yuklaydi. Tarjimaviy umumlashmalar yaratish uchun tarjimondan turli juft tillar vositalarini qiyosiy o'rganish, badiiy matnning estetik jihatdan o'ziga xosligini, uning moddiy, hissiy ta'sirchan va obrazli tizimini tashkil etuvchi unsurlar haqida tushunchaga ega bo'lish taqozo etiladi.

**METODLAR VA NATIJALAR**

Tarjimon ona tilining rivojlanish darajasi, tarjimachilik an'analari, tajribalariga suyanadi, turli xil tafovutlarning mavjudligini hisobga oladi.

## TILSHUNOSLIK

Hozirda sud huquq terminlarining o'zbek tilida qo'llanilishida quyidagi holatlarni kuzatish mumkin:

1. Ko'plab terminlar tilimiz imkoniyatlari asosida o'zbekchalashtirilgan. Bunda bir guruh terminlar o'zbek tilidagi tayyor muqobillari bilan berilmoqda, ma'lum qismi esa tarjima qilinib ishlatilmoqda, bir qismi esa o'zbek tili qonun-qoidalari asosida yasalmoqda. Masalan: *auksion-kimoshdi, makler-dallol, kommersant-tijoratchi* va hokazolar.

2. Yana bir usul dunyoning ko'pchilik mamlakatlarida ishlatilib kelinayotgan baynalmilal terminlarning o'zbek tiliga ham o'z holicha o'zlashtirilishidir. Bu o'rinda shuni ta'kidlash zarurki, yangidan kirib kelayotgan terminlarning hammasiga ham o'zbekcha muqobilini topish qiyin. Shuning uchun ularning asosiy qismi dunyoning ko'pchilik mamlakatlari tillarida bir shaklda o'z asl holicha ishlatiladi va bu qo'llanish dunyo huquqshunoslar orasida o'zaro axborot almashinuvi uchun qulay. Masalan: *auditor, avizo, valyuta, veto, advokatura, adliya*.

## MUHOKAMA

Hozirgi zamon tilshunoslik fanida terminlar sinonimiyasi masalasi eng dolzarb va yechilishi qiyin bo'lgan muammolardan sanaladi. Shuni alohida e'irof etishimiz joizki, hozirgi kunga qadar birgina tushunchani qanday atash masalasida munozaralar davom etib kelmoqda. Ba'zi tilshunoslar terminologiyada neytrallik bo'lishini hisobga olgan holda, bir tushunchani anglatuvchi turlicha ifodalarni "dublet terminlar" deb atashsa, boshqa bir qator tadqiqotchilar esa uni "sinonim" deb ham atash mumkinligini ta'kidlashmoqda. Yana bir guruh olimlarning fikricha terminologiyada sinonimlilik umumadabiy tildagidan farq qilgani uchun uni "dublet" deb atashni qo'llab quvvatlashmoqda<sup>88</sup>.

Umuman olganda, nafaqat terminologiyada, balki tilshunoslikda ham "sinonim", "dublet" va "variantlilik" kabi tushunchalarning o'ziga xos xususiyatlari aniq belgilanmagan hamda ularni bir biridan farqlash masalalari yetarlicha ochib berilmagan.

R.A. Budagov sinonimiyaga "ma'nosi bir-biriga yaqin, talaffuzi esa turlicha bo'lib, bir tushunchaning turli qirralarini ifodalovchi so'zlardir" deb ta'rif bergan<sup>89</sup>. Mazkur mazkur ta'riflardan ma'lum bo'ladi, so'zlarni o'zaro sinonim deb hisoblash uchun, ularning ma'nosida o'xshashlik va yaqinlik asos qilib olinadi. Biroq sinonimlarni aniqlash uchun bu ikki mezon har doim ham ishlatilavermaydi.

**Vorislik huquqi - meros huquqi** terminlarini misol tariqasida izohlaymiz. Bu ikki termin aslida bir hil tushuncha bo'lib, fuqarolarning xususiy mol-mulkga bo'lgan huquq va majburiyatlarining ular vafot etganidan keyingi huquqiy holatini ifodalaydi. Biroq har qanday sinonimik qatorda bo'lgani kabi bu ikki terminlarning o'ziga xos ma'no xususiyatlari mavjud. Ya'ni, *meros huquqi vorislik huquqiga* qaraganda ancha keng ma'noga ega. Meros shaxs vafotidan keyin uning boshqa shaxsga o'tishi mumkin bo'lgan huquq va majburiyatlaridan iboratdir.

Aniqroq qilib izohlaydigan bo'lsak, fuqaroga xususiy mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan uy-joy, avtomashina va boshqa mol-mulklar emas, balki shu mol-mulkga nisbatan bo'lgan huquq me'ros obyektini sifatida meros tarkibiga kiradi. Vorislik huquqi esa vafot etgan shaxsning xususiy mol-mulkini, mulkiy huquq va majburiyatlarini boshqa shaxslarga ya'ni merosxo'rlarga o'tish shartlari va tartibini belgilab beruvchi huquqiy normalar yig'indisidan iboratdir. Vorislik huquqi meros huquqining bir qismi sifatida meros tarkibiga kirgan mol-mulk, mulkiy huquq va majburiyatlarining qonunda belgilab qo'yilgan hamda vasiyatnomada meros qoldiruvchi tomonidan ko'rsatilgan shaxslarga qonunda nazarda tutilgan yoki meros qoldiruvchi tomonidan belgilab berilgan shart va tartibda o'tish qoidalarini o'z ichiga oladi<sup>90</sup>.

Qonun matnlarida shuningdek, o'zbek tilida *daromad- foyda; isbot- dalil; president respublikasi- dualistik respublika; baho- narx; chiqim- harajat; ish qo'zg'atish- ish ochish; ko'chirma- nusxa; xorijiy davlat- chet davlat; oqlash- aybsiz deb topish; tarafdor- yoqlovchi; zarar- ziyon- shikast; buyruq- farmon; xibsxona- qamoqxona; tomon- taraf; o'rinbosar- muovin* kabi ko'plab sinonimik qatorlar uchraydi.

Tarjima qilingan misollar yetarli darajada shuni ko'rsatadiki, tarjimonda muqobil variantga ega bo'lmagan leksikani qayta tuzish orqali tarjima qilinadi. Muqobilsiz variatning mavjudligi o'sha

<sup>88</sup> Sharipova O', Yo'ldoshev I. Tilshunoslik asoslari. Toshkent. 2006. 55 b.

<sup>89</sup> Будагов Р.А. Введение в науку о языке. 2-е изд. – М.: Просвещение, 1965. – 492 с.

<sup>90</sup> O'zbekiston Respublikasi fuqarolik huquqi. II qism.- Toshkent: Adolat, 1999. 560 b.

tarjima qilinayotgan tilda shu tushunchani beruvchi mos soʻzning yoʻqligi bilan ifodalanadi. Masalan, oʻzbek tilidagi “qora kun” mazmunini ingliz tilida ochib beruvchi “rainy day” mavjud boʻlgan bir paytda yovuz fikrlarni tarjima qilish uchun mustahkam ekvivalentning ingliz tilida yoʻqligi, uning *gloomy thoughts, dark thoughts, evil desiona, evil sheming, simster plans* kabi tarjima qilishga olib kelgan.

Ikkinchidan, nomuqobil variantga ega boʻlgan leksiklarning paydo boʻlishi, shunda namoyon boʻladiki, tarjima qilinadigan tilda, oʻsha yoki boshqa leksik birliklarning umuman muhimligi bilan birga shu soʻz xaqida tushunchalarning va ularni tarjima qilishda, transleteratsiya, kalkalash yoki maʼnosini ochib berish uchun tariflashdan foydalanish kerakligini koʻrsatadi. Masalan: “*Davlat duması*” kabi soʻz birligi uchun qanday muqobil kerak? Koʻrinib turibdiki, biz bu yerda *duma* soʻzini kalkalash orqali “*The State Duma*” deb tarjima qilamiz.

Shu bilan birga, hozirgi gazeta va jurnallarda –*dom* bilan yasalgan yangi soʻzlar (neologizmlar) paydo boʻlmoqda: *bangdom – uyushtirilgan banditizm, bogdom - hayot toʻsiqlari, officialdom - rasmiy doira*

Terminologik sinonimiya masalasiga nisbatan turlicha qarashlar mavjud. Koʻpchilik olimlar terminlarning aniqligini saqlash uchun sinonimlarni kamaytirish tarafdorlaridir. Baʼzi olimlarning fikricha terminologiyada sinonimlarning mavjud boʻlishi tabiiy jarayondir.

Xususan, ilmiy terminologiya tarixi bilan shugʻullanuvchi tadqiqotchi L.L.Kutina shunday yozadi: “ilmiy terminologiya sohasida keng tarqalgan sinonimiya hodisasi terminologik sistemalar amal qilishining ilk bosqichi uchun, yaʼni uning shakllanish davri uchun xarakterlidir”

### XULOSA

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, davlatimiz rahbari belgilab bergan vazifalarni amalga oshirishdan hech kim chetda turmaydi. Davr barcha ziyolilar qatori trajimashunoslar va tilshunoslar oldiga ham yangi vazifalar qoʻydi. Bu vazifalarni amalga oshirishni loʻnda qilib, bir tomondan, yaratilayotgan huquqiy-meʼyoriy hujjatlarning jahon andozalari darajasida boʻlishi hamda milliy mentalitetimiz va manfaatimizni himoya qilishi, ikkinchi tomondan, ularning davlat tilida mukammal yaratilgan bolishi, ham qonuniy, ham til jihatdan hech bir eʼtirozlarga oʻrin qoldirmasligi tarzida tushunish toʻgʻri boʻladi. Buning ustiga, xalqimiz oʻrtasida huquqiy madaniyatni targʻib qilish, qonunlar va boshqa huquqiy-meʼyoriy hujjatlardan ularni xabardor qilib borish nutqiy madaniyat bilan bogʻliq boʻlgan gʻoyatda masuliyatli vazifani amalga oshirishni ham taqozo etadiki, bu borada huquqshunoslarning maʼlum malakaviy va nutqiy koʻnikmalarni egallashlari lozim boladi.

### LIST OF REFERENCES

1. Kurzon, D. Legal language: Varieties, genres, registers, discourses. International Journal of Applied Linguistics. 7.119-139.
2. MELLINKOFF, DAVID. 1963. The language of the law. Boston: Little, Brown.
3. Jackson, B. 1994. Some semiotic features of a judicial summing up in an English criminal court. International Journal for the Semiotics of Law. 7.20.201-224.
4. Levi, J. 1994. Language as evidence: The linguist as expert witness in North American courts. Forensic Linguistics. 1.1-26.
5. Turaeva U. COMPARATIVE STUDY OF UZBEK AND ENGLISH LEGAL TERMS LEGAL LINGUISTICS: HISTORICAL FOUNDATIONS, BASIC CONCEPTS AND ASPECTS //Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities. – 2021. – T. 1. – №. 1.6 Philological sciences.
6. UMIDA T. Characteristics, Methods and Challenges of Translating Law Terminology //JournalNX. – T. 6. – №. 11. – C. 312-316.
7. Toʻrayeva, U. (2023). THE ORETICAL AND PRACTICAL BASIS OF TRANSLATION OF TERMS. Scientific Journal of the Fergana State University, 29(4), 64. Retrieved from <https://journal.fdu.uz/index.php/sjfsu/article/view/2758>
8. Хошимхуджаева, М. М. (2017). Мотивологический анализ английских, русских и узбекских фитонимов с компонентом-антропонимом. Проблемы истории, филологии, культуры, (1 (55)), 369-378.
9. Абдиназаров, У. (2023). Лингвистические особенности гиппологической лексики в узбекском языке. Традиции и инновации в исследовании и преподавании языков, 1(1), 77-82.
10. Raimov, L. (2023). THE BASIC BRANCHES OF LINGUISTICS. Центральноеазиатский журнал образования и инноваций, 2(11 Part 3), 178-180.
11. Jabborova, S. (2023). TIBBIYOTGA OID TERMINLARNING TARJIMASI VA LUGʻATLARDI BERILISHI. Центральноеазиатский журнал образования и инноваций, 2(11 Part 3), 174-177.